

B 01139
Q 12
TO'LEPBERGAN QAYIPBERGANOV



99
MASLAHAT

F(2)81/8
34-0

Aziz bolajonlar!

Hoji, atoqli yozuvchimiz To'lepbergan Qayipberganov O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi, Qoraqalpog'iston, O'zbekiston, sobiq SSSR Davlat va xalqaro Mixail Sholoxov mukofotlari sovrindori. Yozuvchining kitoblari o'zbek, o'ris, qozoq, eston, moldavan, turkman, qirg'iz va boshqa tillarga tarjima qilingan.

Hoji otangizning mazkur kitobi ko'p yillik hayotiy tajribalari asosida yaratilgan bo'lib, u nafaqat Adashiga, balki, siz kabi barcha o'smirlarga bag'ishlangan. «Maslahat» larni sinchiklab o'qib-o'rgansangiz kelajakda, mustaqil hayot yullaringizda Sizga asqotadi deb umid qilamiz.

Qoraqalpoq tilidan
Qurbon SHONIYOZ tarjimasi

Mas'ul muharrir
Ahmad OQNAZAROV



© «Bilim» nashriyoti, 2007

T14

XXI ASR BO'SAG'ASIDA TUG'ILGAN ADASHIMGA 99 MASLAHAT

*«Kimda-kim o'zgalarning original fikrlarini
tushuna bilsa, u juda aqlli inson ...»*

Blez Paskal (1623 — 1662)
farang matematigi va yozuvchisi

Assalomu alaykum, XXI asr bo'sag'asida tavallud topgan Adashim!

Mening bu ko'hna dunyodan olgan saboqlarim, to'plagan tajribalarim ham da xulosalarimga ko'ra, kelajakda sening oldingda son-sanoqsiz past-balandliklardan iborat murakkab dovonlar va yakka o'zing manglayingni tirab ochishing kerak bo'lgan berk eshiklar ham kutib turibdi. Ular albatta sendan chiniqishni, tajriba to'plashni, bilimli-ilmli bo'lishni talab etadi.

Shunday bo'lsa-da, voyaga etganingdan so'ng bu yorug' dunyoda ko'rganlaring, tushunchalaring ko'kraging «saroyi» ga sig'may, qalbingni larzaga keltirgan kezlarda, yoshi ulug'lar bilan sirlashib-suhbatlashish asnosida bilganlaringdan tashqari, o'zingning tushunchalaringga qarama-qarshi chiqib qolishing mumkin bo'lgan vaziyatlar paydo bo'lishiyam menga sir emas. Bunday vaziyatlarni men o'z hayot yo'llarimni o'zimcha anglab, oz bo'lsa-da baholash darajasiga etganimdan keyingina to'la idrok etishga erishdim. Endi bilsam, turmushning ko'plagan kutilmagan muammolariga, hodisalariga unchalik e'tibor qilmagan ekanman. Endi sen, aziz Adashim, menga o'xshab o'z zamoningda hech narsaga bee'tibor bo'lma, aylanay!

Buyuk vatandoshimiz Shayx Abu Bakr al Shibliy (861 — 945) «o'z davrimda to'rt yuz pir va ustozlarga xizmat qilib, to'rt ming hadisni o'qib ulgurdim. Biroq shu to'rt mingdan faqat bittasini

yodda saqlab, shu hadisga suyandim-da, boshqalarini unutdim» degan ekan.

Aylanay, Adashim, men bugun o'zimni piri komil buyuk Shibliy Shayxga tenglashtirish fikridan butunlay yiroqman. Shunday bo'lsa-da ...

Umr zuvlab o'taverar ekan. Mening guvohligimda ne bir hasratli, ne bir tushunishi qiyin bo'lgan hodisalar yuz bermadi deysan. Birovlar yig'lasa, ikkinchi birov kulib, uchinchi esa har ikkalasiga tushunmay hayratlanib yurganlarining guvohi bo'lganman. Shuning uchun bo'lsa kerak nuroniy bobolar: «Tangri taolo hayotda bir-biriga qarama-qarshi narsalarni ko'plab yaratgan. Ularni ko'rib-bilib turganingdan keyin goho: «Er shari qanday qilib bir tomonga og'ib ketmay turganiga hayron bo'lasan» deyishardi.

Endi o'zim guvohi bo'lgan ba'zi bir mavhum holatlardan ayrim misollar keltirayin:

... Kutilmaganda qo'shni ko'chaga o't ketib, ko'p uylar yonib, kul bo'ldi. Ammo shu yong'indan bir xonadon talofat ko'rmadi. Odamlar bir kun yurib, yong'indan yonib kul bo'lgan xonadonlardan tirik qolganlarga ko'ngil aytib chiqdilar. Ertasiga esa yong'indan omon qolgan xonadonga borib, bazmu jamshid qilishdi. Bunga ne deysan? Men ham bu holatga oldin tushunmaganman. XXI asrdagi Adashim, bunday jumboqlar sen yashaydigan zamonlarda ham maboda yuz bergudek bo'lsa, o'zing o'ylab, biron-bir xulosa kelishga urinib ko'rarsan.

... Yana bir kuni kechqurun o'ng taraf qo'shnimiz yuqori lavozimdan bo'shaganini eshitib, uni yupatish, ko'ngil aytish uchun xonadoniga borib kelsam, xuddi shu lavozimga tayinlangan chap yon qo'shnim mehnonga chorlab bolasini yuborgan ekan. Uning uyida tongotargacha bazm qurib, amalini «yuvdik». Bunga ne deysan?

Yana bir kuni uchinchi qo'shnimning xotini ikki turmush qilgan erini tashlab, boshqa birovga erga tegib ketganini eshitganimizdan keyin barcha qo'ni-qo'shnilar yig'ilib, ayolidan ajralgan tul hamsoyamizni bir amallab yupatib kelsak, to'rtinchi hamsoyamiz

shu kun uylanganini bildirib, «to'y» ga aytib yuboribdi. Keyin bilsam, u uchinchi qo'shnimni tashlab ketgan ayolni o'z nikohiga olayotgan ekan... Shunday bo'lsa-da, shu xonadonda o'tirib, tong ottirdik... Bu narsalarning asl, tub sabablarini senga qanday tushuntiraman, Adashim!? O'zing voyaga etib, ulg'aygach, biron-bir xulosada to'xtarsan...

Bunday hayotiy qarama-qarshiliklarni ko'p ko'rganim uchunmi, bariga ko'nikib ketganim shunchaki, hatto nafaqat boshqalarni, ba'zida o'zimni o'zim tushunmay qolaman, agar o'lim to'shagiga mixlanib qolsam, qaysi qo'shnim bilan qay tarzda vidolashib, qay taqlidda xayrlashuvimni bilolmay hayron bo'laman...

Ba'zan bu dunyoda ortiqcha sezaman o'zimni, bemavrid tug'ilgan beaql banda hisoblab, o'zimni o'zim shunday paytda yomon ko'rib ketaman... «O'zidan nafratlanib, biroq hech narsaga to'g'ri javob topmagan har bir insonning bu yorug' dunyodan ketishga shoshilgani afzal» dep shivirlab, o'lgim keladigan paytlar ham bo'ladi. Afsus... afsus... oson emas...

Nima degandayam bu keng olamda yashashga hamma haqli. O'ylab ko'rsam, butkul odamzot nasli hayot atalmish ulkan daraxt soyasida yashayotgan janzodlarga o'xshaydi. Gohida, o'ylab-netib o'tirmay, shu azim daraxt soyasida yashayotgan o'zimiz-ku desakda, xuddi shu daraxtning soyasi tushgacha bizniki, tushdan keyin esa o'zgalarniki ekanin anglaganday bo'lamiz... Bularni anglagach bir-birimizdan o'sha soyani qizg'anadigan odatlarimiz ham yo'q emas!...

Buning ustiga, har olgan nafasimizni ichga yutishda-da, chiqarishda-da o'ziga xos mushkulliklar bor. Ichingga tortganingni sirtga chiqarib, yoxud chiqarganingni ichga yutib ulgurasanmi yoki yo'qmi, bilmaysan. Bu ham o'ziga xos bir jumboq!

Bu dunyoga kelibsanki, sening har olgan nafasingda beshafqat ajal kutib turadi... Bu haqiqatni hamma biladi, biroq o'zlarini bilmaganga solib yashashadi...

Ana shu haqda o'ylasam, birdan do'stlarimni izlashni, ular bilan diydorlashishni qo'rsab qolaman. Lekin haqiqiy do'stlarim

bormi o'zi?... Ular kimlar?... Nechta?... Ana shular men uchun eng og'ir va murakkab savollardir...

Yoshligimda go'yoki do'stlarim ko'pdek edi. Ular bilan uchrashish, diydorlashish uchun oshiqardim, ba'zan ota-onamning, o'ylaganim-dan so'ng ayolimning ham so'zlariga quloq tutmay ana shu do'stlarni izlab ketishga shoshildardim. Do'stlar bilan har safar uchrashib, suhbatlashganimda, dunyoning men uchun hali noma'lum tomonlari ochilganday tuyulardi, apoq-chapoq bo'lib ketardik. Shunday lahzalarda ba'zi bir jo'ralar bilan o'rtamizda kechgan araz, o'pka-ginani eslamasdik. Chunki biron masalada tortishib, kelishmay qolgan bo'lsak-da, ertasigayoq o'sha kelishmovchilikni unutib ketaverardik. Ex, qani o'sha sadoqatli do'stlar? Yillar o'tib, ularning ba'zi birlari boqiy dunyoga ketishgan... tiriklari esa nevara-chevara tashvishlari bilan ovora... Huv, o'sha yoshligimiz qayda deysan?...

Mana, yoshim 70 dan oshdi. Har kuni bu yorug' olam bilan mening ham xayrlashuv soatlarim yaqinlashganday sezaveraman o'zimni. Shunday damlarda ichki armonlarimni aytib, hovurimdan tushish uchun sirlashishga do'st topolmayman. Mabodo topolganimdayam u odam o'z tashvishlari bilan band bo'lib, mendan o'zining allaqanday sirlarini yashirib turganday bo'lib tuyulaveradi...

Faqat o'z farzandlarim, nevaralarim, qondosh-qarindoshlarim-gina yaqin do'st bo'lib qolg'an, shekilli. Farzandlarim bilan do'stligimga quvonganimdan ba'zan xalqning:

«Farzandsiz mo'minga til tekkizmianglar,

Farzandsizning umri o'tar zor bilan» degan qo'shig'i esimga tushadi, befarzand kimsalarga rahmim kelganidan beixtiyor ko'zlarim yoshlanadi...

«Injil» ning beshinchi surasi 44-45-oyatlarida avliyo Matvey xushxabarida: «Dushmaningizni ham sevinglar!... Sizga jabr-zulm qilganlar uchun ham duo qilinglar. Shundagina siz samodagi Otangizning farzandi bo'lasiz! Sababi u o'z nurini yovuzlarga ham, yaxshilarga ham teng sochadi» deyilgan. Ana shu cho'ng fikrlarni o'tgan-ketganlarga takror aytish uchun gohida yo'llarning

bandargohlariga chiqib, soatlab turishga ham rozi edim... Bilinki, suyuqli Adashim, odam bolasi uchun paydo bo'lgan qaysi dinga diqqat-e'tibor qilsang, barisi umuminsoniyat uchun Xudo tomonidan to'rt narsada tenglik yaratib qo'yilganiga guvoh bo'lasan. Ana shu 4 tenglikni senga o'z so'zlarim bilan bayon qilayin:

1. Ey, inson, sen qaerda yurib, qaerda bo'lib, qanchalik baxtli, shodu-xurram yashasang ham, baribir oxirida hammani o'tkazadigan darvoza seni ham kutib turibdi. Bu — o'lim darvozasidir!

2. Ey, inson, sen o'z umring maboynida eng qimmatbaho ipak, baxmallardan kiyimlar kiyib, boshqalarga nisbatan hukmingni o'tkazib, rohat-farog'atda yashasang ham oxirida hamma kiyadigan bir kiyimni kiyasan. Bu kiyim — oq matodan tikilgan kafandir!

3. Ey, inson, sen o'z umring davomida qanday duldullarga, mashinalarga minib yohud samolyotlarda osmonlarga uchib, mag'rur yashasang-da, baribir oxirida barcha qatori bir otga minajaksan. Bu ot — oddiy yog'ochdan ishlangan tobutdir!

4. Ey, inson, sen o'zingga hashamatli saroylar qurib, turfa bog'u-bog'chalar orasida yashasang ham baribir oxirida sen ham boshqalar borib yotadigan joyga kirib, abadiy uyqiga ketasan. Bu joy — qabrdur!»

Ana shu hikmatlarni ertaroq tushunib yashasang, baxtli inson bo'larsan-ov, biroq unutilmasang-chi?! Unda oyoqlaring hamisha qaltiragan holda yashashga majbur bo'lasan, Adashim!

Tangritaolomiz ham o'zi yaratgan Odam avlodlariga ushbu to'rtta tenglikni abadiyatgacha esdan chiqarmasdan baxtli yashasin deb aql-es bersa-da, undan foydalanishni har kimning o'z inon-ixtiyorida qoldirgan... Shu bois bot-bot unutib ham yasha, mehribon Adashim!

Erkim o'zimda-ku, deb ish qilsang, boshqa birovning erkiga zaxmat etkazishni qayta-qayta o'ylab kor. Baxtga qarshi, men ham bu aqidalarni xotiramda tutishga o'z davrimda imkon topolmaganman. Shu boisdan bo'lsa kerak, ko'pgina xatolarga yo'l qo'ydim. Bugun ana shu xatolarimni o'ylasam, oldimdagi

yo'limni ko'rmay qolaman. Endilikda sen xato qilmay yashash yo'llarini topib yasha, aylanay Adashim!

... Inson hayotining bu dunyodagi har bir daqiqasi bebaho. Baholashniyam bilish kerak. Bir lahzaning o'zida er silkinib, butun borliq ostin-ustun bo'lib ketishi ham ehtimoldan holi emas... Bilib qo'y, navqiron Adashim, bu sirli dunyo har bir insonning o'zicha fikrlash, tavba qilish, yolverish, o'kinish, yig'lash, hech kimni azoblamay suyunish sevilish dunyosi!...

Hozir qanday holatda bo'lmasin, inson uchun yaratilgan bu keng olam mangu bor bo'lsin, ilohim! Axir o'sha o'kinchlar, sevinchlarsiz bu dunyoning qizig'i bo'larmidi?! Alalhusus, kuyunishlar bo'lmasa, suyunushlar neligini, suyunishlar bo'lmasa, kuyunishlar neligini to'g'ri anglolmasdik.

Tushunmaslik bilan anglolmaslik butkul ahmoqlik, go'lliklarning doyasi. Bandalarini, shu jumladan ular qatorida seni ham ana shunday ahmoqliklardan uzoq tutsin, yaratganning o'zi! O'zing ham xolis va to'g'ri tilak-istaklardan chetda qolib ketma, qadrdon Adashim!?

... Endi bo'lsa, suyuqli Adashim, mabodo, mening manguilik darvozasidan ichkariga kirib ketish onlarim yaqinlashgan so'nggi damlarimda, yostig'im yonida paydo bo'lsang-u, menga savollar bergudek bo'lsang, Tangritaolomdan zarradek bo'lsada imkon so'rab, senga javob qaytarishdan qiynalmagan bo'lardim. Mabodo: «Menga qanday nasihatlar aytib ketasan?» desang, men senga ulug' Mahmud G'aznaviyning (XI asr) bir nasihatini takrorlab: «Tangritaoloning nazari sening qalbingda, shuning uchun nafsingni, barcha a'zolaringni ham pok, ham ozoda tutib yasha, aylanayin» der edim.

... Agar sen mening yuzimdagi holatdan uqib, mening bu foni dunyodan shoshilinch rixlat qilishimni anglab etgudek bo'lsang: «Menga to'rtta so'z aytsangiz?» desang, «Hech qachon otanangni, xalqingni ranjitma!» degan bo'lardim, «Uch so'z ayt?» desang, «Onangni, xalqingni sev!» degan bo'lardim, agar «Faqat ikki so'z aytib ket?» desang, «Omon bo'l, Adashim!» derdim. Agar «Bir so'z ayt» desang, «Qoraqalpoqlarim!!!» degan bo'lar edim.

Agar so'nggi nafasimni olayotganimda, yonimda bo'lolmasang, boshqalar ham savol berishmasa, ich-ichimdan hech kimga eshittirmasdan, ona xalqimning dono farzandlari yaratib ketgan tubandagi ikki qator hikmatli baytni:

Onadan tug'ildim, bordim bozorga,
Kafanlik chit olib qaytdim mozorga...

deya takrorlab, ko'zlarim manguga yumilardi.

Ana shunaqa gaplar, suyukli Adashim! Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom: «Bu dunyoda qancha fursat turishingga qarab ish qil...» degan ekanlar, Payg'ambarimizning bu nasihatlari barcha tiriklarga tegishli, aylanay Adashim!

Endi sen umrguzaronlik qiladigan XXI asr, ya'ni uchinchi ming yillikning birinchi asri butkul insoniyatga (ular qaysi xalq, millat, elat bo'lishidan qat'iy nazar) o'zining mehr-muhabbatga to'la «Buyuk Birlikning, Baxtlilikning nurlarini teppa-teng sochgay, boshqalar qatorida bizning navkar yurakli oqko'ngil qoraqalpoqlarimiz ham barcha xalqlar bilan teng o'rin, maqomga ega bo'lib unib-o'sgay!» degan tilaklar bilan, o'zimcha, tavakkal etib, tanho o'zingga ataganim 99 nasihatimni aytgim keladi.

Birdaniga: «Nega 100 emas?» deb meni mulzam qilma. Bilaman, ulug' donolar: «Har inson o'zicha bir dunyo» deydi. Shuningdek, ular: «Oh bir kam bu dunyo» deb o'kinch bilan gapirishadi. Mening ham ulardan ortiq erim yo'q! Yo'q! Men ham, axir, xomsut emgan, bir kam bo'lib tug'ilgan insonman.

Aylanay, Adashim, senga bu maktubimni ramazon oyida, ro'za paytimda yozayotganim uchun ham ro'zaning ahamiyati to'g'risida muxtasar aytayin: payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vassalam o'z ummatlariga: «Summu tasahhu!»-ya'ni, «Ro'za tutinglar, salomat bo'lasizlar!» deya ogohlantirgan ekanlar. Darhaqiqat, avvalgi zamonlarda yashab o'tgan buyuk allomalar yozib qoldirgan yozuvlarni o'qisakda, bugungi kun shifokorlari bilan suhbatlashsakda, barchasi: «Oshqozon barcha kasalliklar o'chog'i», «har bir odamning birinchi dushmani — uning oshqozoni» deya ogohlantirish barobarida tani sog' bandalar har

yili bir oy ro'za tutib, oshqozon ishini tartibga solib turishi foydadan holi emasligini ko'pdan ko'p misollar orqali uqtirishadi.

Diniy ta'limotga ko'ra, odam Ro'za tutsa, g'arazgo'ylik, o'zgalarni orqavarotdan g'iybat qilish, yolg'on so'zlash, birov-larning obro'yini to'kish singari qo'pol hatti-harakatlardan o'zini tiymog'i shart ekan. Bu talablar inson sihati uchun o'ta foydaliligini dalillashga hojat bo'lmasa kerak.

Payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vassalam Ramazon oyini: «1. Dahaiy rahmat»; «2. Dahaiy mag'fiyrat»; «3. Dahaiy chitkumminannar» — deb, uch o'n kunlikka bo'lar ekan. Birinchi o'n kunlikda Olloh taoloning rahmat eshiklari ochilib, ro'zador bandalarga yaratganning nazari tushsa, u har qanday balo-yu ofotlardan omon qolarkan, ikkinchi o'n kunlikda, xudo Ro'za tutgan bandalarining har qanday gunohlarini kechirarkan, uchinchi o'n kunlikda esa ro'za tutganlarni do'zahdan ozod qilarkan...

Ardoqli Adashim! Aytaversam bu dunyoda insonga to'g'ri yashashni o'rgatadigan ta'limotlaru, maslahatlarning adohi yo'q. Shu boisdan men o'y-xayollarimni biroz tushovlayman-da, tanho o'zingga aytishni mo'ljallagan maqsadlarimga o'taman:

Aylanay suyukli Adashim;

1. «Qur'oni Karim»ning 28-surasi 88-oyatida ta'kidlanishicha, har bir tirik bandaga, bir kun bo'lmasa bir kun ajal keladi. Shungacha o'zingga «Kimman?», «Kimga kerakman?», «Nega kerakman?» degan savollarni berib, o'zingga ham, tinglovchiga ham birdek maqbul keladigan jo'yali javoblar topishga intilib yashashni unutm!

Millating qoraqalpoq ekanligini, bu atama bizning qadimgi bobolarimizning barcha turkiyzabonlarni himoya qiluvchi xos navkarlar bo'lganligi uchun, ularning navkarligini boshqalardan alohida anglatib turish maqsadida, hozirgi atama bilan aytganda, navkarlik nishoni sifatida boshiga Qora (Ulkan) qalpoq kiygizilgani sababli, millatingning qoraqalpoq deb atalganini hech qachon

esingdan chiqarma. U bilan faxrlan. Buyuk Amir Temur aytganidek: «Millatning dardlariga darmon bo'lish — bosh vazifang» ekanligini hech qachon unutma!

2. Har gal «Men'ingni o'ylab ayt. Har «Men'ingda o'zingdan tashqari millating ham namoyon bo'ladi. Bilginki, millating kamsonli bo'lsa-da, sening tiling bilan o'zakdosh 26 ta millat tili mavjud. Ularning barchasi azaldan bir ota-onaning farzandlari bo'lgan. O'sha 26 ta turkiyzabonlarning orasida O'zbekiston Prezidentining: «O'zbekistonning kelajagi — Qoraqalpog'istonning kelajagi, Qoraqalpog'istonning kelajagi — O'zbekistonning kelajagi» deb ta'kidlagan da'vatnomasiga ishonib yasha!

Yana fikr qil va ishonki, har bir turkiyzabon inson kelajagi sening kelajaging, sening kelajaging turkiyzabon insonlarning kelajagi!

3. Eng avvalo o'zligingni anglamas ekansan, o'z millatingni ham, boshqalarni ham etarli darajada tushunmaysan. Hech bir ishga o'ylanmay qo'l urma. Odamzot olamida o'zing va millatingning asosiy o'rmini, olg'a yuradigan yo'llarini, huquqlarini o'rganib, tushunub, ularni himoya qil, xalqing, Vatanning uchun xizmatga doim tayyor tur, kerak bo'lsa joningni ham ayama!

4. Har bir inson, o'zicha bir yulduz. Har bir millat o'zicha, bir porlab turgan yulduz. Demak, senam yulduzsan, sening ona xalqing — qoraqalpoqlar ham, zotan, oz sonli bo'lsa-da, porloq yulduz!!! Shu porloq yulduzning moviy saltanatda ko'proq nur sochishi o'zing kabi chaqnoq-chaqnoq yulduzlarga bog'liqligini unutma. Qandaydir bir yovuz kuch bu yulduzlarni qalin tuman pardasi bilan burkamoqchi bo'lsa, ularga zarba berishga mudom shay tur!

Ertanggi kunimiz bundan-da obod bo'ladi deb fikr qilsang ham, ko'pam ishonaverma, yolg'iz yaratgandan o'zga hech kim ertaga nima bo'lishini aniq bilmaydi...

Xalqingning oz sonli bo'lgani qalbingni tirnaganda, uning boshqalar qatorida bugungi kunda egallab turgan o'rni uchun nolinma, talashma. Har xalqning mavqei o'sha xalqning yalpi savodxonligi, o'zaro hamjihatligi, bag'rikengligi, dunyoni qanday

o'rganishi va sevib tushinishiga bog'liq. Elingni ham, dunyoni ham birdek baholay bil va sev!

«Kim o'zgaga chuqur qazisa, o'zi o'sha chuqurga tushadi, kim birovga qarshi qilich ko'tarsa, uning o'zi qilich zarbidan o'ladi», degan xalq hikmatlari esingdan chiqmasin.

6. Har insonning qalbi Tangritaolaning qulfi ostida. Inson qalbining qulfini ochuvchi so'zlashuv kalitlari barcha odamlarga teng tarzda bo'lib berilgan. Kim bilan gaplashmoqchi bo'lsang ham, uning qalb qulfini ochadigan kalitni shu insonning o'zidan yoki o'zgalardan emas, balki o'zingdan izla. Qancha xalqning tilini bilsang, shuncha sondagi xalqlarning qalb qulfini ochuvchi kalitlarga ega bo'lasang. Ko'ngling o'ksimasin, har uchraganga ichki dardlaringni to'kib solaverma. O'zingga yoqmagan odamning ustidan shikoyat arzilari yozib-to'qish-o'ziga xos sirli yovuzlik. Odamga qilgan yomonliging keyin o'zingga qaytadigan baxtsizlikdir. To'g'ri izlasang, to'g'rilikni topasan.

7. Insonni nurga qiyos qilishning ma'nosi — uning mehri, har tomonlama teran bilimi, aql-zakovati, tevaragidagilarga samimiy munosabati bilan bog'lik tushunchadir. Hech qachon hasadgo'y va qizg'anchiq bo'lma. «Qizg'anchiq va hasadgo'y ota-onalardan bir xil jinsdagi farzandlar tug'ilaveradi» degan rivoyat ham bor. Bu rivoyatga ishonish yoki ishonmaslik o'zingga havola. Ko'rolmaslik kasaliga muhtalo bo'lganlar bilan qizg'onchiqlarning bu dunyoda yaxshi yashash muddati cheklangan darajada bo'lishi haqida ham bir o'ylab ko'r. O'zingdan do'stlarni bezdirmaslik uchun kechirimli bo'l.

8. Bilib qo'y, Tangritaolo odil, u seni yoki millatingni dunyodagi mavjud hech bir insondan, hech bir millatdan kam yoki ortiq uquvli qilib yaratmagan. Lekin, dunyoga tanilish — har bir insonning, millatning o'zaro mustahkam ahilligiga, har tomonlama takomillashgan bilimiga, shakllangan aql-zakovatiga bog'liq.

9. Mabodo bilimda, ilmida, kuch-qudratda yuqoriga ko'tarilsang, hech qachon «Men yuqoridaman!» deya ko'kragingga urma. Tangritaolo eshitguvchi, ko'rguvchi, nogohon uning g'azabiga uchrab qolishing ehtimoldan holi emas. Bu dunyoda

dushmansiz insonning o'zi yo'q. Har qanday sharoitda ham sabrli bo'l. Sen haqingda kimdir yomon fikr bildirsa, sen o'zing uning oldiga bor va bamisli yaqin do'stlar kabi so'zlashishga intil, yutqizmayсан.

10. «Tangrini biz hech qachon ko'rmaganmiz. U qaerda? Nega bilmaymiz?» degan shubhali o'ylar hayolingga kelmasin. Masalan, shamolning shakli shamoyilini ko'rganmisan? Ko'maysan. Agar o'sha shamol bo'ron yoki to'fonga aylansa, uylar qulashini, dengiz va okeanlar o'z sarhadlaridan sig'may oshib-toshib ketishini bir ko'z oldingga keltir...

Sulaymon payg'ambarning insonlarga qarata aytgan ushbu ogohlantirishini unutma: «Sen, masalan, onangning qornida nafas olish a'zolarining, suyaklaring qay tarzda, qanday paydo bo'layotganligini bilmaganing kabi, butun borliqni yaratguvchi qudratli kuchning ishlarini ham bilmaysan. «Shuning uchun ham dunyo sirlarini har tomonlama tinimsiz o'rganishdan to'xtama, hayotdan o'zingga keng-keng guzarlar izlashdan charchama. Aql va farosat bilan izlansang, uni albatta topasan...

11. Umr haqiqatu g'irromliklardan iborat. Ular orasida yashab turib, kim bilan, qaysi millat vakili bilan uchrashsangda, uni o'zingdan kam mushohada qilmaydigan aqli inson deb bil, senga nimalar kerak bo'lsa, unga ham xuddi shunday narsalar zarurligini unutma. Kim bilan bordi-keldi qilsang ham munosabating odil bo'lsin. Sening odiluging millatingning odilligi ekanligini unutma!

12. Mustaqillik va qaramlik borasida chuqur o'ylab, fikr yurit. Inson ob-havogayam, do'stu yoronlargayam, el boshchilariga ham, qo'ni-qo'shni, hatto o'z oilasiga ham bog'lik bo'lib yashagani kabi, o'z davlati yaratgan qonun-qoidalarga ham bog'liq bo'lib yashaydi. Bunday bog'likni qullik deb tushunma! Bunday bog'liqlik birlik, omonlik, yaxshi yashashning asosidir.

13. Ko'pchilikka ma'qul bo'lgan narsani yoki hodisani bir o'zing inkor etma. Shunday qilsang, ko'pchilikni yomonlagan bo'lasan. Xalqda: «Ko'pni yomonlagan ko'muvsiz qoladi» degan naql bor. Bu naql bejizga aytilmagan. Ba'zi o'ylaring amalga oshmagani uchun allakimlarga gina qilishni odat qilma. Noo'rin

gina o'zing o'z yo'lingga tashlagan tikanli changaldir. Senga yaxshilik qilgan insonlardan qarzdorsan. O'sha qarzlarni uzishni doim yodda tut.

14. Kim bilan yuzma-yuz kelsang ham birinchi bo'lib salom berishni o'z insoniylik vazifam deb bil. Ostonangni hatlab kirgan insonga, u hatto dushmaning bo'lsayam, uying to'ridan o'rin ber. O'rta taom qo'yilsa, mehmondan burun ovqatga qo'l urma. Bilib qo'y, dunyoda mutlaqo gunohsiz yoki mangu gunohkor, aqlsiz odam bo'lmaydi. Kim bilan hamroh bo'lsang ham o'sha odamni birinchi bo'lib tushunushga intil!

15. Yakka yurib dono atalgandan ko'ra, ko'pchilik bilan nodon atalganingga o'kinma. O'tmishdagi ulug' ustoz — allomalarning pandu-nasihatlariga suyanishing barobarida, ko'p vaziyatlarda g'am-alamlarda shodliklar, shodu hurramliklarda qayg'u-alamlar mavjud bo'lishini unutma. Fikr qilib yasha!

16. Ota-onangga munosabatda alohida mehr ko'rgaz. Ularga qanday izzat-hurmat, mehr-oqibat ko'rsatsang, qariganingda farzandlaringdan qaytadi. Shuni unutma — insonlar bor tirigida o'likdir, insonlar bor o'lgandan so'ng ham tirikdir. Mangulikka dahldor bo'lish esa insonning o'ziga bog'liq.

17. Birov savol bersa-yu, unga javob bermaslik yaramas odat, madaniyatsizlikdir. Ko'z bilan ko'rib, tajribadan o'tkazmay, faqat quloqlaring eshitganiga ishonib javob beruvchi bo'lma. Har so'zing toshdek salmoqli, quyoshdek nurli bo'lsin. Mabodo haqiqat seni baxtsizlikka duchor qilishini sezsang-da, bundan hayiqma, bezma.

18. Do'stlaring, tanish-bilishlaringni xonadoningga mehmonga chaqirsang, ularga oila a'zolaringga bo'lgan mehrning kamida yuz bir foiz darajasida mehr bilan xizmat qil.

Insonga eng yuksak va qudrat faqatgina sog'liq emas, balki eng sodiq do'stlari hamdir. Do'stlarsiz inson keng cho'listonda o'sgan yakka qamishga o'xshaydi. Shunday qamishga aylanib qolishdan xudo asrasin seni.

19. Dinlar orasidagi tortishuv, qarama-qarshiliklar azaldan mavjud bo'lishiga qaramasdan bir din uchun Tangritaloga o'z sodiqligingni bildirish maqsadida boshqa dindagilarga qarshi

qo'lingga qurol olsang, bu o'z diningga behurmatligingdir. Sen birovni sevsang, uning dinini ham sev. Dushmaningni doimo ta'qib qilaverma, tez charchab qolasan.

Qalbing bezovtalanaversa, payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vassalamning hadislarini, Sharqning buyuk allomalarini, xalqimizning dono maqol, matallarini topib o'qi.

20. Odamzod uchun yaratilgan barcha ilmu-hikmatlar, dono rivoyatlarning, avvalo Sharqda paydo bo'lib, so'ngra butkul dunyoga taralganiga ishonch hosil qilmoqchi bo'lsang. Sharq bilan G'arb faylasuflari yozib qoldirgan kitoblarni izlab top va qiyoslab mutolaa qilgin. Izlaganingni, shak-shubhasiz, topasan.

21. Davrada ko'p so'ylab, maqtanchoqqa aylanib qolishdan qo'rq. Shaxsan o'zing allaqanday voqeaga yoki kitobga keskin baho bermasdan oldin mana bu rivoyatni esla: «Turonning odil podshohlaridan biri bir kitobni o'ta maqtaganni ham, o'ta yomonlaganni ham zindonga buyuribdi. Shunda vaziri: «Ey, ulug' shoh, nega bunday qildingiz?» — deb so'rganida, shoh: «Ikkovi ham boshqalar mehnatiga baho berish madaniyatini o'rgansin» degan ekan.

22. O'rtog'ing, qo'shning qaysi millatdan bo'lsa, sen ularni e'zozlab yashasang, ular ham seni, sening millatingni e'zozlashadi. O'z maslagining quliga aylangan inson boshqalarning quliga aylanadi. Har qanday yangi ish boshlashdan oldin ehtiyot bo'l, avvalo o'sha ishni kallangda obdon pishitib, so'ngra kirish.

23. Horijga sayohat qilganingda, o'zimni, xalqimni bularga bir tanishtirib qo'yayin degan niyatda o'rinsiz ko'p so'zlab, hali pishmagan, sayoz fikrlaring bilan o'zingni va xalqingni bilar-bilmas kamsitib qo'ymagin. O'zini kamsitishsa-da, o'z xalqini kamsitib so'ylagan insonni sevadigan inson bo'lmaydi. Sababi har bir millatning obro'si u mansub bo'lgan har bir insonning obro'si, sha'ni, shuhrati.

24. Hech kim erisha olmagan shon-shuhratga noil bo'lishning ham o'z usuli, o'z qopqasi, o'z kaliti, o'z bahosi bor. Ularni to'g'ri topaolish o'ta mushkul ish. Qandaydir maqom yoki darajaga erishmoqchi bo'lsang, mushkulotu to'siqlardan qo'rqmay harakat qil. Eng oson usullar bilan erishilgan shuhrat huddi shamolli kunda

uchirilgan, ipi uzilib ketib, zumda ko'zdan g'oyib bo'lgan varrak singari tez barbod bo'ladi. Oson shuhrat izlama.

25. Bir kishini boshqarish butun xalqni boshqarishdan qiyin kechadigan damlar bo'ladi. Kim bilan hamroh bo'lsang ham yoki birga ishlasang ham, uni o'z xalqining vakili deb tushunishga harakat qil. Har bir ishing, har bir maqsadingda, eng birinchi galda, o'z xalqingga bo'lgan muhabbating ustivor bo'lsa, engilmaysang. Mabodo, rahbarlik lavozimiga ko'tarilsang, tevaragingdagi dushmanlaring yasama do'stga aylanishiga e'tibor qil.

26. Biron bir ishni boshlamoqchi bo'lsang, shu ish avvaliga senga osonday tuyulsa-da, bu ish ancha mushkul ekan degan ishonch bilan, agarda boshlaydigan ishing qiyinroq bo'lib tuyulsa, uni bu ish anchayin oson ekan degan ishonch bilan boshlasang, maqsadga etish unchalik ko'p mushkullik tug'dirmaydi.

27. O'z shaxsiy manfaating, avlodlaring nafini ko'zlab millatingni o'zgartirish — xalqningni sotish bilan barobardir. Xushomadlarga berilib, o'z millatingni o'zgartirish — bu o'zing mansub millat, xalq ustiga yozuvlarcha tashlangan bomba! O'zing bomba ostida qolsang qol, lekin xalqing ustiga bomba tashlama.

28. Osmon bilan Er oralig'i Tangritaoloning butkul janzotlar tirikchiligi uchun yaratgan keng o'tovi. Bu o'tovda kutilmagan hodisa-yu, alomatlar yuz bersa, buni sohibi qudratning bizga yuborgan jazosi deb kuzatuvchi bo'lib, beparvo o'tirmasdan ularga qarshi o'z aql-zakovating, idroking bilan chora izla!... Baribir oyoq ostida-ku, degan fikrda zaminni, tuproqni xo'rlama. Bugun bo'lmasa, ertaga sen o'zing ham ana shu oyoq ostidagi tuproq bag'riga kirib, uni ustingga ko'rpa qilib yopinib, mangulik uyqusiga ketasan.

29. Yaratganning inoyati ila eng so'nggi paydo bo'lgan din — bu Islom. Qur'oni Karimda nomlari zikr etilgan 25 payg'ambarning har biri Xudo tarafidan erga yuborilgan elchilardir. Ular chuqur o'rganilsa, odamzotning komillikka erishish imkoniyatiga yo'l topilishi ehtimoldan holi emasligiga ishon. Bunday imkoniyatlarni izlab topish dunyo xalqlari qatorida, sening ham, sen mansub millatning ham bosh vazifasi ekanligini qalban his qil.

30. O'ng tomoningdagi qo'shningni o'ng egnim, chap tomoningdagi qo'shningni chap egnim, orqa taraf qo'shningni o'z elkam, yuzing qaragan tarafdagi qo'shningni o'z yuzim degan mehr bilan hurmat-izzat qil, bordi-keldi qil. Shunda ular ham seni huddi senday qadrlab, oilangga hurmat bilan qaraydigan bo'ladi.

31. Bu foniylar dunyoda xalqing uchun ming marotaba ibratli ish qilsang ham, bu oz, lekin bir marotaba nodonlik qilsang, bu ko'p. Xalqni unutish — o'zingni unutish. O'zligingni unutish — xalqingni unutish ekanini angla. Vatanga muhabbat har bir inson uchun eng yuksak fazilat, haqiqatga muhabbat esa Tangritaologa muhabbat...

32. Inson umri ba'zida kaftingdagi suv ko'pigi kabi, ba'zida tong yulduzi kabi bir zumda ko'zdan g'oyib bo'ladi. Ko'zdan g'oyib bo'lguningcha, o'zingni, tuqqan-tug'ishganlaringni, xalqingni doimo sevib yasha.

33. Umriga qanchalik beparvo qarasang, baxtsizlik va o'lim seni shunchalik tez topadi. Baxtsizlik ham, o'lim ham yosh tanlamaydi.

Mabodo osmonda uzoq parvoz qilish usulini topgan bo'lsang-da, yo'llarim rovon, bir tekis deb g'aflatda qolma. Hatto osmonda ham tekis yo'l yo'q.

34. O'zing pok bo'lsang, hech bo'lmaganda, bir nopokni o'zingga yaqin tutishga intil, shunda sen uning harom niyatlarini o'zingning pokliging bilan yuvib, dunyoda bir nopokning kamayishiga sabab bo'lasan. Nopok insonlardan yordam so'rama, u seni nopoklikka sudraydi.

35. Boshqalarni kamsitish hisobiga o'zingni maqtama. O'zgalarni kamsitib, seni maqtovchilarga ishonaverma. Ustozingning senga: «Nurli bo'i» degani elektr lampochkasiga aylan degani emas. Odamning nuri — bilimida va daga vafodorligida, atrofida qilarga mehribonligida bilinadi.

36. Ilon hulqli odamlarga tuzalib ketar degan fikrda to'sa sut berishing oldidan, ana shu bergan sutning ko'z oldingda zaharga aylanishi haqida o'yla.

Payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vassallam hadislarida aytilganidek «olov o'tinni kulga aylantirgani kabi hasadgo'ylik o'zingdagi barcha yaxshi niyatlarni kulga aylantiradi. Hasadgo'y bo'lma. Hasadgo'y bilan do'stlashma.

37. Tanish-bilishlarningning yolg'iz o'zingga yoqmaydigan hulq-avtorlari, mol-dunyo, boyliklari bois havolanib, kalondimog'lik bilan davralarda so'z aytishlari yuqumli kasallik kabi sening hulqingga ham o'tib, surunkali odatga aylanib ketmasin. Mabodo shunday xastalikka chalinib qolsang, uni oilangdagilarga yuqtirishga harakat qilma. Tevaragingdagi yaxshilar, zotan sendan yosh bo'lishsada, ulardan namuna olib yashash sening xastaligingga davo bo'ladigan dori-darmondur.

38. Ayrim odamlar o'zlariga yaxshilik qilganlarni emas, o'zlari kimga yaxshilik qilganini og'zidan qo'ymay, maqtanib yurishadi. Sen ularga o'xshamagin. Boshqalarning senga qilgan yomonliklarini, o'zingning boshqalarga qilgan yaxshiliklarini unutib yasha, shuningdek, o'zingning boshqalarga qilgan yomonliklarini, o'zganing senga qilgan yaxshiliklarini hech qachon unutm.

Inson yuragi gohida tosh kabi mustahkam, gohida gul kabi nozik. Qanday odam bilan suhbat qilsang ham, ehtiyot bo'lib, muomala qilgin.

39. O'zingning yomon xislatlaringni avvalo o'zing anglab etmasang, o'zingga o'zing yomonlik qilgan bo'lasan. Birovni o'rinsiz qarq'asang, qarq'ishing avvalo o'zingni uradi. Vijdonni yo'qotish har qadamda qoqilib yiqiladigan kasallikka giriftor bo'lish bilan barobardir.

Inson tabiatidagi virusli xastalik — qizg'anchilik, o'zgalarga ishonmaslik. Bilki, bunday xastalik aromida ovqat esang ha'm seni ozdirib, adoiy-tamom qiladigan xastalikdir. Shuhratparastlik davosi yo'q kasallik. Undan saqlasang, hurmatda bo'lasang.

40. Yangi tashabbusing ma'lum darajada qadimgi davr tashabbuslariga oz-moz o'xshab qolsa, hovliqma. Har bir yangi avlod o'zidan oldingi o'tgan avlodning shogirdi. Ustozdan o'tib ketish bosh maqsadingga aylansa, seni hech bir ustoz ayblamaydi.

41. Tangri inson ruhiyatini azaldan benuqson yaratadi. Nuqsonli bo'lish, kasalga chalinishlar keyin, sen o'zingni qanday tutishing bilan bog'liq. Rahbarlik lavozimida o'z ustunligini uzoq saqlashni niyat qilgan inson bora-bora shuhratparastlik kasaliga muhtalo bo'ladi. Shuhratparastlik eng og'ir hastalik. Xushyor bo'l. Yuqorii lavozimda ishlayotgan bo'lsang, atrofingdagilarga, qo'l ostingda ishlovchilarga emas, o'zingga ustunlik qilishga intil.

42. O'z maqsading to'g'riligiga ishonsang, ko'pchilikka aralashsang bo'ladi, agar o'zingga gumoning bo'lsa, ko'pchilikka aralashmaganing ma'qul. Shunda odamlar orasidagi o'rning saqlanib turadi.

43. Ilmsiz, bilimi va aqli noqis boshliq o'z sha'niga aytgan maqtovlarni ko'proq eshitishga shoshilib, qo'l ostidagi pok insonlarni quvg'in qilish yo'liga tushadi. Bu ham o'ziga xos bir kasallik. Bunday xastalikdani yiroq bo'lish har bir rahbar insonning o'z qo'lida ekanini bilib qo'y. Adashganlarni to'g'ri yo'lga solsang, mardsan, donosan.

44. Bu cheksiz olamda oshig'i olchi qorni to'qlardan ko'ra qambag'allar ko'p ekanligini sezib, ular sonini hech bo'lmaganda, bir odamga bo'lsa-da kamaytirish orzusida ish qilsang, demak jamiyatga kerakli, foydali insonsan. Bilginki, yaxshining maslahati — asal, yomonniki — zahardir.

Hech qachon unutmaginki bu dunyo charxpalagi sensiz ham, mensiz ham tinimsiz aylanaveradi.

45. Dushmanig bilan kurashda sovuq quroldan foydalanishga intilsang, bu odamiylikdan hayvonlikka o'zgarganingni anglatadi. Odamzotning hayvonga aylangani haqiqiy hayvonlardan ko'ra yovuzroq bo'lishini unutma.

46. Ashaddiy dushmaningni ayab, unga yaxshilik qilish o'zingning kelajagingga yomonlik qilish ekanini, shu kimsa dushmanim bo'lsa kerak degan gumonda birovga yomonlik qilaverish ham o'zingning ertangi kuningga yomonlik ekanini hamisha his qilib yur. Yana bilib qo'y: Tilning kaliti — til. Til har qanday qilichdan keskir.

47. Xalqing, uning tarixi sening poydevoring. Uning qaelar bilan bog'langanini teran anglab, avaylab o'rganishdan bosh tortma.

Sening milliy davlatingning to'rt tarafidagi to'rt qo'shni mamlakat yilning to'rt mavsumiga o'xshab ko'rinsa da, ular keragingda sening mamlakating — vataningni ko'tarib turgan to'rtta poydevoring to'rtta tirgovchi ekanini esdan chiqarib, ba'zilariga nisbatan ziyon-zahmat etkazadigan ish qilma.

48. Olg'a qarab qanchalik qadam tashlasang ham, shu yo'ldan orqaga ertami-kech qaytishingni o'yla. Agar oshiqlik (muhabbat) bobida o'z maqsadingga eta olmasang, ayrim dostonlardagi qahramonlarga taqlid qilib, joningga qasd qilma. Chunki ba'zi dostonlar ayrim hayolparastlarning ijod mahsulidir.

49. Do'st sirini o'z siring kabi pinxon saqlash o'zingga hurmatni kuchaytiradi. Do'stingga g'azab qilma, arazlama va arazlatma. Kuni kelganda o'sha do'st barcha xeshu aqrobalarining qilolmaydigan yaxshiliklarni qila oladigan paytlar ham bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, aqlsiz do'stingga maslahat bersang, yoqangdan olishini ham bilib qo'yganing afzal!

50. Ko'pchilik yurib borayotgan yo'llarning barchasi ham birdek yaxshilikka olib boravermaydigan holatlar bo'lishi haqida chuqur o'ylab ko'r. Oldingda keng guzar yo'l seni chorlayotgan bo'lsa-da, uning qay chekkasidan yurishni bil. Yomon bilan y'oldosh bo'lma. Yomon nom bilan uzoq yashagandan ko'ra, yaxshi nom bilan o'lib ketgan afzal.

51. Tangritaolo insonga til ato etganda, uni tishlar deb atalmish devor bilan qurshab, sirtidan lab atalmish darvoza qurgan. Ulardan to'g'ri foydalanishda sabr-toqat qila bilsang, hurmatga sazovorsang, aksi bo'lsa, boshingga balolar yog'ilishini hech qachon unutma.

52. Qo'rqqoqlik ham insonning shafqatsizligidan darak. Qo'rqqoqlikka yo'l qo'yib, uni o'zgalar oldida tan olishga siqilsang o'zingning odam farzandi ekanligingga shubha uyg'otasan.

O'zini o'zi haddan tashqari yaxshi ko'radigan, o'zini behad aqlli sanaydiganlar kopincha ayyor kimsalar ekanini unutma. Aqlli do'st jonning rohati, aqlsiz do'st jonning ofati ekanligini unutmay yasha.

53. Mabodo biror bir mahkamani boshqarish ma'suliyati senga ishonilgan bo'lsa, qabulingga kelgan har bir insonni to'liq

tinglamaguningcha, xulosa chiqarma. Kimningdir vafot etgani va yana kimningdir to'yi haqida bir vaqtning o'zida xabar kelsa-da, sabrlik saqlab, qaror qabul qil. Inson ikki marotaba vafot etmasligini esdan chiqarma.

Qadimgi Xitoy faylasufi Shyan Yanning (390 — 338) «Xalq savodsiz qolsa, boshlig'ining iziga ko'r-ko'rona ergashaveradi» degan fikrini esla va mushohada qil. Qora boshing tashvishi deb, o'z jamoang boshqalardan ajralib qolmasin. Har ishda jamoangni ayblashdan qoch. Kamchiliklaringni betga aytganlarning bari dushman emas.

54. Allakimning qo'lida supurgi ko'rib, uni farrosh, ikkinshi birovning qo'lida tanbur ko'rib, uni sozanda desang, unchalik xato bo'lmas, ammo uchinchi birovning bir og'iz shirin so'zini tinglab, uni darrov dono deb bilsang, katta hato qilgan bo'lasan. Hech qachon birovni ko'proq tinglamay turib, xulosa chiqarma!

55. Dushmaningdan o'ch olishni istasang, uning o'ziga o'xshashga harakat qil. Pinjingga kirib seni maqtaganlarning hammasi ham senga birdek do'st bo'lmasligini ham bilib qo'ygan yaxshi.

56. Alloh sening qalbingda, sen bilan birga yashaydi. Uni aldayman deb ovora bo'lma. Agar u sendan yuz o'g'irsa, jismoniy tomondan sog' bo'lsang ham hech bo'lmaganda telba bo'lib qolishing, og'ir musibatga uchrashing aniq.

57. U dunyo jannatidan umid qilsang, bu dunyoning ko'plagan hatlaridan voz kechishingga to'g'ri keladi. Bu dunyoda kasalga davo topilsa-da, nodonlikka davo topish ancha mushkul ish. Qancha mashaqqatlar cheksang ham etimlarning boshini silashga himmat qil. Insof bilan yashashga odatlan.

58. Ustozi darajasiga etgan shogirdgina ustozini to'g'ri tushunadi. Bugungi dunyo olimlari keng va chuqur bilimga erishgandan buyon sharqning ilm-bilimlari o'zlarining ustozini bo'lganligini tan oladi. Shunga qarab, «Men sharq odamiman!» deb ko'ksingga urma. Sharqning asl donoligiga dog' tushirasan.

59. «Qanday gunoh qilsam, keyinchalik uni tuzataman» degan o'y bilan yashash, keksayganda hurmatga olib kelmaydi. Har bir

ishni boshlashdan oldin, ertaga oldingda qarilik turganini esingda tut.

60. Adolatsiz boshchining muruvvatidan foydalanish adolatsiz insonlarning ishi. Birovga ishonib ish qilish ham insonni aqlli ko'rsatmaydi. Hayotda kimga, kimlarga ishonishni bilib yashasang, mushkullaring ham oz bo'ladi.

61. Birov sening yordaming bilan o'z dushmanlaridan o'ch olsa, bir kun shu odam, sening dushmanlaring orqali, o'zingdan ham o'ch olish ehtimoli borligini unutma.

Har qachon do'stu-yorlaringning kimligini to'g'ri anglash uchun harakat qil, erinma. Mehnattan qochma. Uzluksiz mehnat seni zerikishdan, muhtojlikdan, har hil nojo'ya ishlardan asraydi.

62. Tangritaolo qanchalik chin ko'ngling bilan ishonsang, u ham seni shuncha qayg'u-g'amdan qutqaradi. Boshqa paytlarda o'zingga, do'stlaringga, xalqingga suyanib harakat qil. G'iybatchilik qilma. G'iybat so'zlar yaqinlaring u yoqda tursin, tug'ishganlaringdan ham ayiradi.

63. Fikr aytish uchun qanday minbarda chiqsang ham, avvalo tinglovchilar sening takliflaringni qanday amalga oshira olishini hisobga olib gapir. Bu fikrim barchaga birdek yoqdi desang manmanlik bo'ladi. Manmanlik — go'yo bedavo kasaldek, seni qatordan chiqaradi, odamlardan uzoqlashtiradi. Hamma vaqt o'rinli gapir, o'rinda aytilgan so'z o'qdan ham o'tkir bo'ladi.

64. Qalbing keng bo'lsa, senga butun dunyo — Vatan Inson o'z ko'ngliga butun jahonni sig'dirsa ham, shu keng jahon insonning birgina xato ishini o'z ichiga sig'dira olmaydi. Ahmoqlik ham, aqllilik ham yosh tanlamaydi, lavozim tanlamaydi Ehtiyot bo'l.

65. Tangritaoloning o'zi bitta bo'lishiga qaramasdan, har bir insonga bir-biriga o'xshamaydigan xulq-atvor berib, har qaysisining ishlari bo'yicha to'g'ri baholab, quvonch yoki dard beradi. Ota-ona ham o'z farzandlari uchun misli Tangritaolo. Ular ham har farzandini bir-birini takrorlamaydigan xulq-atvorda tarbiyalaydi. Bilib qo'y, farzandlarning notog'ri ishlari uchun birinchi navbatda ota-onasi aybdor.

66. Diniy ta'limotlarga qaraganda, Odam tuproqdan, Shayton olovdan yaralgan. Bu ma'lumotning to'g'riligiga bosh sabab, odam haqiqatdan ham oxir-oqibat tuproqqa aralashadi. Shayton bo'sa tiriklar orasidagi parokandalik oloviga aylanadi. Eng achinarlisi — ayrim odamlar tuproqqa aralashishdan qo'rqibmi, tezroq Shaytonga aylanishga shoshiladilar. Shunday bo'lishdan saqlan.

67. Kimki o'z ota-onasini, xalqini hurmat qilsa, boshqalarning ham shunday fazilatlarini, o'zlaricha to'g'ri tushunib, ularni ham hurmat qiladi. Seri ham shunday insonlardan bo'l.

Aravaning bir g'ildirak bilan yura olmasligiga farosating etsa, umr yo'ldoshingni yomonlama, unga ishonib yasha. Sababi u aravangning ikkinchi g'ildiragi.

68. Joning tanangni butunlay tark etmaguncha, Vataningni sevishdan charchama. Vataningni faqat uning kengligi, boyliklari, Vataningni saqlash uchun bo'lgan barcha kurashlarda, hatto urushlarda g'olib, jasurlarning ko'pligi uchungina emas, haqiqiy ota-yurting, boshpanang, eng so'nggida o'zining issiq bag'riga bosuvchi ona ering bo'lgani uchun sev.

69. Marhumni tobutda olib borayotganlarni ko'rsang, o'zingning ham shu holga tushishingni eslab, to'xta, o'l ber. Marhum uchun qancha yig'lasang ham, uning o'rniga dunyoga endi keladigan inson shu marhumdan aqli bo'ladi, degan ishonch bilan o'zingni ovut.

70. Umr yo'ling uzoq yashaganing bilan emas, o'zingdan keyingi avlodlarga qoldirgan ibratli ishlaring bilan baholanadi.

O'z tinchligingni saqlayman deb umringni quvonchli to'yylarsiz, bayramlarsiz o'tkazish — charchagan paytingda xordiq chiqaradigan dam olish joylari yo'q adog'siz yo'llardan borayotganing kabi ko'rinishini ham eslab qo'y.

71. Insonda asosan ikki kamchilik bor. Ularning birinchisi, kimningdir vafot etganin eshitsa, unga dunyo keng qoladiganday o'zini erkinroq his qilishi, ikkinchisi, aqli etmaydigan narsasiga o'zini tushunadiganday tutishi.

72. Inson bu dunyoga yalang'och keladi, o'lganidan keyin bo'lsa, qancha qilmasin, faqat o'n ikki metr oq bo'z topib o'rab, tuproqqa qo'yishadi. Hatto son-sanoqsiz dunyo-molli bo'lsang ham, bu dunyodan tanangga o'ralgan shu oq bo'zdan boshqa hech narsa olib ketmaysan. Orqangda qolib, seni o'rashga bo'z

izlaydiganlarni aldash hisobidan molu-davlat yig'ishga harakat qilma.

73. Seni noqulay ahvolga qo'yib, joningni qiynoqqa soladigan narsa — boshqalarning o'zing haqingdagi fikrini bilishga intilishing. Bilib qo'y, Tangritaologa shukronalik ham, nafrat ham bir og'izdan chiqadi. Shu bilan birga, bir buloqdan achchiq suv navbat bilan chiqmaydiganini ham bilib yasha.

74. Eramizning birinchi asrida o'tgan Yaqub payg'ambar odamlarga «Sizlar ertaga nima bo'lishini bilmay yashaysiz. Shunda sizlarning umringiz nima bo'lgani?» degan savol qo'yib, o'zi ! Insonning umri — ozgina vaqt ko'zga ko'rinib yo'qoladigan bug'« debdi. Bu tug'rida sen ham o'ylab harakat qilganing afzal.

75. Eramizning 46 — 127 yillari oralig'ida yashab o'tgan qadim yunon yozuvchisi Plutarx: «Yunonlarda aqlilar gapiradi, nodonlar mehnat qiladi...» degan ekan. Plutarxning zamonidan sening zamonangning farqi to'g'risida fikr yuritib ko'r. Sening ham ulug' Plutarxni takrorlashingga to'g'ri kelsa, hali zamonaning unchalik o'zgarmagani. Zamonini to'g'ri yo'lga solish har bir insonning bosh vazifasi ekanini unutma.

76. «Do'stlarim ko'p, dushmanlarim oz» deb maqtanishdan yoki «do'stlarim oz, dushmanlarim ko'p» deb afsuslanishdan oldin ko'proq o'ylansang, do'stlaringning ham, dushmanlaringning ham soni sening aqlinga qarab, qo'lingdagi bor boyligingdan qanday foydalanishingga bog'liq ekanini tushunasan.

77. Odamni tez qaritadigan va kasalga chalintiradigan narsa sening kambag'alliging emas, hatto molu-davlatining ziyodaligi ham emas, balki, o'z zamoningga fikr-mulohazangni ochiq ayta olmaslikdadir. Ayrim xato ishlaring uchun turmaga qamalsang, elning qonun-qoidalarini emas, o'zingni aybla. Har kungi tinch umring uchun tavba qilib tur.

78. Boyligingga ishonib: «Qartaysam, o'zimga oltindan, kumushdan hassa yasataman» deb maqtanma. Har qanday sharoitda ham sening suyanchiq hassalaring — orqangda qoladigan farzandlaring, do'stlaring, qo'ni-qo'shnilaring, birga ishlagan hamkasblaring, xalqing...

79. Adashish, aldanish hammaga ham ma'lum hayot qonuni bo'lgani bilan, olimlar bilan boshliqlarning adashishi alohida: ular ba'zida o'zlari bilan cheklanib qolmay, maqtanib aytgan so'zlariga, xalqqa bergan va'dalariga ishonib ularga ergashganlarni ham adashtiradi.

80. O'z yudingni o'zing tortishga qodir bo'lsang, baxillarga ko'pam e'tibor beravermasdan, oldingga qarab yuraverganing foydaliroq. O'zingcha ko'p o'ylanib, o'zingga qanchalik aqlli ko'rinsang ham bunday aqlingga ishonma. Tangritaolo haqida, o'z yaqinlaring haqida o'ylansang, ularga ishonib harakat qil.

81. Kim senga qo'rqinchli ko'rinsa, bilki, uning o'ziyam atrofdagilaridan ham, sendan ham qo'rqib yashaydi. Qo'rqitganlarning hammasi botir emas, qo'rqanlarning ham hammasi qo'rqoq emas. Bu dunyo qo'rqoqlar bilan botirlarning sinov maydoni. Shu sinov maydonida barcha harakatlaring sening kimligingni aniqlaydi. Ilohim, qo'rqoqlardan bo'lmagaysan.

82. Avval o'zing qilib ko'rmagan bir ishni qilolsang, bu sening topqirliging. Avval o'ylamaganlaringni o'ylaydigan darajaga etsang, hayotiy tajribalaringning va bilimlaringning ortganidir.

83. Vaqtingni yo'qotish — qimmatbaho buyumingni yo'qotgandan og'ir, undan ham og'irlari — aqlingni, bilimingni, boshqalarga ishonchingni yo'qotish. Ogoh bo'! «Ogohlikda xorlik yo'q» deydi xalqimiz.

84. Kerakli paytda tegishli joylarga olqishlar aytib, sovg'a qilishni unutganing — o'zingday odamlar orasida yashashingni unutganing. Boshqalardan hamma ishlarga mas'ullik talab qilaverish — ba'zida o'zingning nimalarga ma'sul ekanligingni esdan chiqarish ekanini unutma.

85. Hayolingdagi ishni amalga oshira olmasang, ko'p qayg'u chekma: bilib qo'y, inson hayoli dunyodagi eng uchqur qush, uni quvib etish hammaga ham oson emas... Aqlsizlar orasida aqlli ko'ringandan ko'ra, aqlilar orasida aqlsiz ko'ringan afzalroq.

Hayotda kutish, umid qilish adoqsiz ko'rinsa ham, ko'pam dovdirama, shoshma, niyatlaring to'g'ri bo'lsa, pok niyatlar bilan ish yuritsang, oxiri etasan.

86. Qaysidir do'stingning hayotdan ketganini eshitsang, o'zingni yo'qotma. Izida sendek sodiq, halol niyatli do'stlari, farzandlari qolgan bo'lsa, uni hali tirik deb bilib, hayotdan ketgan do'sting uchun xizmatlar qil. Yosh avlodlaringga yordam qo'lini ber. Qilgan nojo'ya harakatlaringni keyinchalik yaxshilik bilan yuvolsang, atrofdagilar uchun bulutlar orasidan chiqqan yulduz kabi ko'zga tashlanasan.

87. Qaysidir er-xotinlar to'g'risida «Ularning muhabbati orasida osmon bilan ercha farq bor» deyishdan oldin, osmon bilan er azaldan Oллоhtaoloning o'zi qo'shib yaratgan juft ekanini, dunyodagi sen bilgan, ko'rgan hamma hayotiy hodisalar shu osmon bilan erning farzandlari ekanini yodingda tut.

88. Bemavrid kamtarinlik — uyatsizlik bilan tortinchoqlikning orasidagi jazm.

O'zingni baxtli his qilib yashashni istasang, hayotning barcha omadlariga rozi bo'l. Faqat o'zingga yoqmay, ammo boshqalarga yoqadigan ishlarni qoralama...

89. Eramizdan avvalgi 428 — 347 yillarda yashab o'tgan Aristotel: «Pluton (384 — 332) menga do'st, ammo haqiqat undan ham yaqin va ishonchliroq» degan ekan. Do'stlaring haqida o'ylasang yoki uchrashsang, Aristotelning shu so'zlari yodingda tursin. Shunda kamroq xato qilasan.

90. Ahloqsizlikning bosh belgisi kimgadir minnatdorchiligini unutgan bo'lib ko'rinishga harakat qilish. Qadim yunon donishmandlaridan biri Foles (625 — 547): «Men, birinchidan, hayvon emas, odam bo'lib yaratilganim uchun, ikkinchidan, ayol emas, erkak bo'lib tug'ilganim uchun, uchinchidan, yovvoyi emas, odamlar orasida tug'ilganim uchun Yaratgandan minnatdorman» degan ekan. Shu gapni tez-tez yodingga solib tur. Bu donolikdan xulosa chiqarish erki o'zingga bog'liqdir. Inson o'zining erki bilan ba'zan baxtli, ba'zida baxtsiz. Hamma gap o'z erkingni mustaqil boshqara bilishingda.

91. Chet el safarlarida ko'rgan-bilganlaringni o'z elingdagi jarayonlar bilan taqqoslab, ular orasidan eng ilg'or tajribalarni o'z millatingning ravnaqi uchun tadbiiq qilishga aqlan intilish-niyatlaringning ichida eng muhimi bo'lsin.

92. Xastalanib yotganingda: «Falonchi, pistonchi ko'nglimni so'rab kelmadi» deb xafa bo'lishdan oldin, o'shalar kasallanganda men borganmidim deb o'zingga savol ber. Kasalliging joningdan o'tgan paytlarda, o'zlaricha kulishib yurganlarini eshitsang, g'azablanma. O'zing bir narsaga erisha olmasang, shu narsaga erishganlarni ko'rsang, kuyunma. Bu yolg'onchi dunyodan bir-biriga juda o'xshash hodisalarni ham, insonlarni ham topa olmayсан.

93. Bir sutkaning yarmi yorug', yarmi qorong'u ekanligiga, uning har qatrasi har bir insonning hulq atvorida aks etishiga e'tibor bersang, ko'plab muammolarni echa olasan.

Odil, adolatli insonni tug'ishganingdan ham ortiq qadrla. Kimga bo'lsayam jahl ustida va'da berma, mast holda g'azabga berilma.

94. Bilimi sayoz, ammo orinli-o'rinsiz gapiraveradiganlar, ko'pincha bilimi teran, lekin ko'pchilik oldida gap sotishga qiziqmaydiganlarga qaraganda ancha taniqliroq bo'lsa, ularga o'zingcha kuyunib, hasrat qilma. Bunday illatlar zamonning emas, ba'zi aqlsiz odamlarning o'zlari kashf qilgan illatdir. Odamlar o'zlari yaratgan barcha yomon illatlarni keyinchalik o'zlari to'g'ri yo'lga qo'ya olishiga ishonib yasha.

95. Yaqinda birov menga hasrat qilib: «Bolalarimni zamonga mos bilimli, aqli odam bo'lib etishishlari uchun qattiqqullik bilan o'qitdim. O'ylaganlarimga erishdim. Shu sababli ko'chamizda obro'li ota sanalib, to'y-marakalarda to'rdan joy berishadigan bo'ldi. Yon qo'shnim esa bolalarining vaqtida tuzukroq o'qishiga e'tibor bermay, mol boqtirib, qatiq-sut sottirib, topgan pullariga bozordan arzon mollarni sotib oldirib, qimmatroq sotishga o'rgatgan edi. Yaqindan beri ko'chamizning to'y-marakalarida shu yon qo'shnim obro'li sanalib, ziyofatlarimizda to'rga o'tkazilib, men chetda qoldim» dedi. Unga jo'yali javob topmadim. XXI asr farzandi bo'lgan Adashim, oldingga kim dardini aytib kelsa ham, gapini bo'lmay eshit va uning so'zlaridan o'zingga xulosa chiqarib, to'g'ri maslahat berishga harakat qil. Bu uchun o'z asringni chuqur, har taraflama tushunushga, kelgusi asr haqida hayol qilib yashashga odatlan.

96. Umr qisqa deb noliyverma. Nomi, dovrug'lari oldingi asrlardan bizning zamonimizgacha etib kelgan, ko'chalarga nomlari

qo'yilib, haykallari o'rnatilgan insonlarning umr yo'llariga havas bilan ishlar qilsang, sening ham ular kabi uzoq yashashing ehtimoldan holi emas. Aksincha faqat nomim qolsin, ko'chamga nomim qo'yilsin deb harakat qilsang, balki xatolashishing shubhasiz.

97. Biror dushmaningdan o'ch olib ulgurmagan bo'lsang, u haqida farzandlaringga sir ocha ko'rma. Shunda tiriklar orasida uzluksiz davom etadigan dushmanlikla yani bittaga kamayibgina qolmay, farzandlaringning zimmasidagi yukni engillashtirib, asringning tashvishlarini ham qamaytirishga o'z hissangni qo'shgan bo'lasan.

98. Mabodo yoziuvchi bo'lish nasib qilsa, qalbing har taraflama keng va kutilmagan barcha ko'ngilsizliklarga ham tayyor bo'lsin. Yozuvchiman deb har kimdan kamchilik izlayvermasdan, nomlari dunyoga mashhur so'z ustalarining yozganlarini ko'p o'qib, har taraflama o'rganib, biroq ularning hech qaysisiga o'xshamay, taqlid qilmasdan yozsang, kitob o'quvchilaring soni oz sonli qoraqalpoqlardan bo'lsa ham, ko'p sonli o'quvchilarga ega millatlarning tillariga tarjima qililib, bosilsh uchun senga imkoniyat eshiklari o'z-o'zidan ochila boshlaydi. Lekin, «talantning to'qson to'qqiz foizi — mehnat» degan gap bor. Aksincha, mehnatingning to'qson to'qqiz foizi talant bo'lsa, undan ham baxtlisan. Qaysi janrd, nima yozsang ham, talantingga loyiq mehnatkash bo'l, maqtanchoq bo'lma. Kamchiligingni aytganlardan arazlama, qalbingni keng tut. Nafaqat boshqalarning, balki, o'zingning kamchiliklaringdan ham o'rgan.

99. Ulug' nemis shoiri İogann Gyote (1749 — 1832) o'z taqdiridan kelib chiqib aytganiday: «Odam yolg'iz ishlagan paytlarida faqat o'zi bilan qolsa, qiyin». Gohida qalbing faqat o'zingagina tegishli shodlikka yoki hasratga to'lib ketsa, ularni aytib sirlashguday chin do'st topmasang, jimgina «Kundalik daftar» tutgin va qalbingga sig'magan fikrlaringni shu kundalik daftaringga yozib qo'yishga odatlan. Shunda qalbing engillasadi. Qalbi engil odam ko'pam kasal bo'lavermaydi. Sog' odam to'g'ri o'ylaydi. To'g'ri o'ylar o'zingni, do'stlaringnigina emas, hatto xalqingni

ham yaxshiliklarga etaklaydi. Inson uchun xalqi bilan hamqadam bo'lishdan ortiq baxt yo'q!!

Ardoqli Adashim! Mening yolg'iz o'zingagina aytishga niyat qilgan bu maslahatlarim o'zimning hayotiy tajribalarimdan va umrim davomida yuborgan ko'p va xo'p xatolarimdan kelib chiqqan hulosalardir. Shunday bo'lsa ham bu nasihatlarim XXI asrda tajribali, har taraflama aqli, bilimli bo'lib voyaga etayotgan seni va sening tengdoshlaringni qanoatlantirmasligini ham bilaman. Sababi odamzot paydo bo'lgandan beri keksalar o'zidan keyingilarga nasihatlar aytishni milliy dasturga aylantirganlar. Ularni kim qanday qabul qilishi yoki qilmaslik erki esa, albatta, o'z ixtiyorida!

Bugun senga aytgan nasihatlarimni o'zimcha mushohada qilib o'tirib, ulardagi ba'zi qusurlarni, yuzakiliklarni his qilgan holda, o'zim-o'zimga hijolatomuz; «Ey, To'lepbergan Qayipberganov, sen o'zing ham, aqling-taffakuring ham yuz emas, to'qson to'qqiz foiz, ming emas, to'qqiz yuz to'qson to'qqiz foiz inson bo'lsang keragov!» deya yonboshimni chimchilayman... Na iloj, men o'z qalbmning buyurganini yozdim. Chunki, har inson o'z qalbining quli-ku. Shunday ekan, men kimdan ortiqman?!

Aynalay, Adashim! Ba'zi birovlar sen singari yozganlarimni o'qib, meni ayblasalar ham, mayli, ixtiyor uzlarida. Ammo, sen ham, ular ham o'qishga vaqt ajratganlaringiz uchun har biringizga, «Rahmat! Yashayotgan asringiz sizlarni ham, xalqimizni ham baxtli qilgay, inshoolloh!» deyman, xolos. Xayr! XXII asrga qadar sog'-salomat bo'lgaysan, Adashim!

Sevimli Adashim! Senga atalgan nasihatlarimni yakunlash asnosida Qur'oni Karimning «Fotih» surasini avval arabcha, keyin o'zimcha so'zma-so'z takrorlamoqchiman:

Bismillahir Raxmanir Raxiyim, Al-hamdu lillohi Rabbil Alaamiyn, ar-Rahmanir Raxiyim, Maliki yao'middiyn, Iyyaka na'budu o'a iyyaka nastag'iyin, Ixdinas sirotal Mustahim, Sirotal-laziyina an'amta alayhim, G'ayril mag'zuo'bi alayhim valaz-zalliyin! Omin!»

**«Mehribon va Rahmli Alloh nomi bilan! Barcha olqishlar
Parvardigori olam, Mehribon, Rahmli va Jazo kunining egasi Alloh
senga munosib! Sengagina sig'inamiz va sendangina madad so'raymiz.
Bizlarni doim to'g'ri yo'lga boshlayver. Tanho sening marhamatingga
sazavor bo'lganlarning yo'li bo'lsin, Sening g'azabingga duchor
bo'lganlarning va adashganlarning yo'li bo'lmasin! Omin!»**

QQ 2
Q-26

T. Qayipberganov. 99 maslahat. Nukus: «Bilim» nashr.,
2007 y. 32 b.